

LINGVOPRAGMATIKA

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Xorijiy til va adabiyoti:ingliz tili yo'nalishi 4-kurs talabalari

Yo'ldosheva Mahbuba Akramovna

Ziyayeva Feruza Choriyorovna

Bozorova Aziza Boybo'riyevna

Islomova Ozoda Rustamovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada lingvopragmatika fanining asosiy tamoyillari va uning tilshunoslikdagi ahamiyati yoritilgan. Maqola lingvopragmatikaning nazariy asoslarini bayon qilgan holda, tilning kommunikativ kontekstda qanday ishlatilishi, nutq amallari, yashirin ma'nolar (implicature) va diskurs tahliliga oid masalalarni o'rganadi. Shuningdek, maqolada lingvopragmatikaning madaniyatlararo muloqotda tutgan o'rni va turli ijtimoiy kontekstlarda nutqning qanday talqin qilinishi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: lingvopragmatika, nutq amallari, yashirin ma'nolar, ijtimoiy kontekst, nutq.

Annotation: This article explores the fundamental principles of linguopragmatics and its significance in linguistics. It outlines the theoretical foundations of linguopragmatics, examining how language is used in communicative contexts, issues related to speech acts, implicature, and discourse analysis. Additionally, the article discusses the role of linguopragmatics in intercultural communication and how speech is interpreted across various social contexts. This study serves as a valuable resource for those interested in new approaches within linguistics, highlighting the applications of linguopragmatic analysis in different fields and its importance in fostering effective human communication.

Key words: linguo-pragmatics, speech acts, hidden meanings, social context, speech.

Hozirgi zamon tilshunosligida kommunikatsiyaning turli shakllari va ularda tilning qo'llanilishiga qaratilgan tadqiqotlar tobora ortib bormoqda. Bu jarayonda lingvopragmatika sohasi alohida ahamiyat kasb etmoqda, chunki u tilni nafaqat shakl va strukturaviy nuqtai nazardan, balki uning real muloqot jarayonlaridagi ahamiyati va amaliy qo'llanilishi jihatidan o'rganadi. Lingvopragmatika tilning muloqotdagi roli, turli ijtimoiy vaziyatlarda nutqning qanday shakllanishi va til unsurlarining kontekstga qarab qanday ma'nolarni anglatishini chuqurroq tushunishga yo'naltirilgan. Lingvopragmatika - bu tilning muloqotda va ijtimoiy vaziyatlarda qo'llanishini o'rganadigan soha bo'lib, til elementlarining nutq jarayonida qanday ma'nolarni ifodalashini, ularning turli ijtimoiy kontekstlarda qanday qabul qilinishini o'rganadi. Lingvopragmatika tilshunoslikning semantika (ma'no) va pragmatika (tilning amaliy qo'llanilishi) yo'nalishlarini o'z ichiga oladi va ularning kesishgan joyida shakllanadi.

Lingvopragmatikaning asosiy maqsadi .Lingvopragmatikaning asosiy maqsadi - so'zlovchilar tomonidan tilning qaysi maqsadlarda va qanday usullarda qo'llanilishini, ma'lumotning qanday tarzda taqdim etilishini, uning qanday ta'sir o'tkazishini tushunishdir. Bu soha tilning o'zgaruvchan va dinamik jihatlariga e'tibor qaratadi va gaplovchilar o'rtasidagi muloqot jarayonini yanada samaraliroq tushunishga yordam beradi.

Lingvopragmatikaning muhim jihatlari:

1. Kommunikativ maqsadlar – so'zlovchining maqsadini, masalan, kimnidir ishontirish, xabar berish yoki emotsional ta'sir ko'rsatish kabi funksiyalarni tahlil qilish.
2. Kontekst – tilning turli ijtimoiy, madaniy va shaxsiy sharoitlarda qanday o'zgarishini o'rganish.
3. O'zgaruvchan ma'no – bir xil so'z yoki iboraning har xil kontekstlarda turlicha ma'no anglatishi.
4. Ijtimoiy va madaniy omillar – tilning qanday usullari yoki so'zlari ijtimoiy maqom, yosh yoki boshqa omillarga qarab tanlanishi.

Lingvopragmatika tilshunoslikda o'rganilayotgan yangi soha bo'lganligi uchun uning kategoriyalari, birliklari haqida umumiy tushunchalar hali to'liq shakllanmagan. Shunday bo'lsa ham L.A. Kiselyovning har qanday tadqiqot obyekti ma'lum lingvistik birliklar sistemasidan iborat ekanligi haqidagi fikriga tayangan holda pragmalingvistik xususiyatlarni o'zida aks ettiruvchi pragmalingvistik birliklar sifatida pragmemma va informemma muloqotda foydalaniladi. Shu kunga qadar pragmatika borasida turli qarashlar olg'a surilgan bo'lsa-da, ammo ularning hech biri pragmatika, uning predmeti, obyekti kabi tushunchalarni tugal ochib berolmagan. Lingvopragmatika bevosita kommunikatsiya jarayoni bilan uzviy bog'lanishda ekan, ijtimoiy hayotning kengayishi natijasida uning tadqiq jarayoni ham yangi tushuncha va qarashlar bilan boyib, pragmatikaning ichida o'rganilishi kerak bo'lgan bir qancha tarmoq sohalari shakllanishiga zamin yaratadi. Nutqiy akt nazariyasi, deysis nazariyasi, diskurs nazariyasi, pragmasemantika, pragmastilistika kabilar shular jumlasidandir. Lingvopragmatikaning xususiy masalalari doimiy nutq ishtirokchilari va nutqiy muloqot bilan bog'liq bo'lganligi uchun pragmatika haqidagi turli qarashlar quyidagi umumfikrga birlashadi: 1. Lingvopragmatika sohasida olib borilgan barcha taqdidotlarda til, inson, nutqiy faoliyat tushunchalari o'rganilgan va faoliyat tushunchasiga alohida yondashilgan;

Pragmatika (yun. pragma, pragmatos — ish, harakat) — semiotika va tilshunoslikning nutqda til belgilarining amal qilishini o'rganuvchi sohasi; boshqacha aytganda, muayyan belgilar tizimini o'zlashtirib, undan foydalanuvchi sub'yektlarning ayni shu belgilar tizimiga munosabatini o'rganuvchi fan tarmog'i. P. haqidagi asosiy g'oya amerikalik olim Ch. Pirs tomonidan o'rta tashlangan; yana bir amerikalik olim Ch. Morris ushbu g'oyani rivojlantirgan va "P." terminini semiotika bo'limlaridan birining nomi sifatida amaliyotga kiritgan. P. insonning ijtimoiy faoliyatini o'zida qamrab oluvchi nutq jarayo-ni, muayyan aloqa vaziyati orqali namoyon bo'ladi. Lingvistik P. aniq shakl, tashqi ko'rinishga ega emas; uning do-irasiga so'zlovchi sub'yekt, adresat, ularning aloqa-aralashuvdagi o'zaro munosabatlari, aloqa-aralashuv vaziyati bilan bog'liq ko'plab masalalar ki-

radi. Mas, nutq sub'yekti bilan bog'liq holda quyidagi masalalar o'rganila-di: bayonning oshkora va yashirin maqsadlari (biron-bir axborot yoki fikrni yetkazish, so'roq, buyruq, iltimos, maslahat va'da berish, uzr so'rash, tabriklash, shikoyat va boshqalar); nutq taktikasi hamda nutq odobi turlari; suhbat, so'zlashish qoidalari; so'zlovchining maqsad; so'zlovchi tomonidan adresatning umumiy bilim jamg'armasi, dunyoqarashi, qiziqishlari va boshqa hislatlariga baho berilishi; so'zlovchining o'zi bayon qilayotgan xabarga munosabati kabilar. P.da nutq adresati, o'zaro aloqaga kiruvchilarning munosabatlari, muayyan aloka vaziyati singari omillar bilan bog'liq qolda qam ko'plab masalalar o'rganiladi. P. g'oyalari evristik (yo'naltiruvchi) dasturlash, mashina tarjimasini, informatsion-qidiruv tizimlari va boshqalarni ishlab chiqishda qo'llanadi.

Sh.Safarov pragmalingsvistikaga berilgan ta'riflarni umumlashtirib, tadqiqotchilarning bu boradagi asosiy g'oyalarini quyidagicha tasniflaydi:

- kommunikativ faoliyat tavsifining tayanch nuqtasi faoliyat tushunchasidir;
- lison muloqot ishtirokchilarining o'zaro munosabatini harakatga keltiruvchi vositadir;
- lisoniy faoliyat voqelanishi bevosita muloqot muhiti bilan bog'liq hodisadir.

Ma'lumki, muloqot muhiti, asosan, matnda o'zining bor imkoniyat va xususiyatlarini namoyon etadi. Shunga ko'ra lingvistik birliklarning pragmatik xususiyatlarini o'rganish matn lingvistikasini chuqur o'rganishni talab etadi. Zero, so'zlovchining axborot uzatishdan maqsadi, tinglovchining axborotni qanday qabul qilganligini matnda yanada aniqroq bilishimiz mumkin. Bugungi kunda matnni tadqiq etish pragmalingsvistika yo'nalishiga bo'lgan e'tiborning kuchayishi bilan yanada avj oldi. Qator tadqiqotlar matn qurilishi, unda o'z imkoniyatlarini topgan kategoriyalar, matnning kognitiv xususiyatlariga bag'ishlandi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, lingvopragmatika tilning ijtimoiy va amaliy qo‘llanilishini chuqurroq anglashga yordam beradigan muhim soha hisoblanadi. U til birliklarining turli vaziyatlarda qanday ma‘no ifodalashini, so‘zlovchilarning kommunikativ maqsadlarini va bu jarayonda kontekstning o‘rnini o‘rganadi. Bu fan muloqotda turli madaniy, ijtimoiy omillar, shaxsiy motivlar va tilning dinamik tabiatini hisobga olish orqali tilning insonga qanday ta’sir ko‘rsatishini aniqlashga imkon beradi. Lingvopragmatika nafaqat tilshunoslik tadqiqotlari, balki zamonaviy kommunikatsiya vositalarini, ijtimoiy tarmoqlardagi nutq xatti-harakatlarini ham tahlil qilishda keng qo‘llaniladi va bu orqali tilni yanada kengroq va teranroq tushunishga yo‘l ochadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Safarov Shaxriyor (2008) “Pragmalingvistika ”
2. F. Абдурахмонов, А. Сулаймонов, X. Холиёров, Ж.Омонтурдиев. Хрзирги узбек адабий тили. Синтаксис. Тошкент, "Укитувчи" - 1979, -2086
- 3.Abduvahob Madvaliyev, Yo‘ldosh Solijonov.[1]
- 4.O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil